

**TOLERANTLIKNING INSON HAYOTIDAGI O'RNI**

Abidova Ziyoda Askarovna  
*O'zbekiston Milliy universiteti,  
Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent*  
Jo'rayeva Halima Alisher qizi  
*O'zbekiston Milliy universiteti,  
Ijtimoiy psixologiya kafedrasi tayanch doktoranti*

**Annotatsiya:** *Maqolada shaxs tolerantligi muhim hususiyat ekanligi va uni namoyon qilgani singari intolerantlikni ham namoyon qilishi mumkin ekanligi ko'rilgan. Ushbu jarayonlar qanday kechishi, rivojlanishi yoki susayishi ham jamiyatga qay darajada ta'sir etishi ko'rib chiqilgan.*

**Kalit so'z:** *Tolerantlik, intolerantlik, shaxs, qadriyat, ijtimoiy-psixologik muhit, ong.*

Ma'lumki, tolerantlik insonlariing turli iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, mafkuraviy, ma'naviy, ruhiy munosabatlarini ularning millati, irqi, nasli-nasabi, iqtisodiy ahvoli, dini va e'tiqodiga qaramasdan muvozanatda saqlash meyorlarini anglatadi. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasida tolerantlik tushunchasiga shunday ta'rif berilgan: “Bag'rikenglik, o'zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, histuyg'ulari, fikr-mulohazalari va g'oyalari va e'tiqodlariga nisbatan toqatli bo'lish”.

Mustaqil fikrga ega, o'z millati va Vatani manfaatlari yo'lida fidoyilik ko'rsatishga qodir barkamol avlodni tarbiyalab, ularda milliy ongi shakllantirish, mustaqil barqaror taraqqiyot uchun xizmat qilishga yo'naltirish jarayonida milliylikka xos tolerantlik yo'nalishlarini kengaytirish bugungi kunning talabidir. Tolerantlikni namoyon qilish ham insondan katta dunyoqarash bo'lishini so'raydi, chunki bag'rikenglikni ko'rsatish ham ba'zi vaqtarda murakkab jarayondir masalan madaniy, diniy va mafkuraviy xilmallik bilan yashash bu muqarrar ravishda odamlar o'zлari yoqtirmaydigan e'tiqodlar, qadriyatlar yoki amaliyotlarga duch keladigan vaziyatlarni yaratadi. Bunday vaziyatlarda odamlar o'zлari yoqtirmaydigan narsalarga toqat qilish uchun sabablarni ko'rib chiqishlari mumkin ya'ni, sabr bardoshlikni yoki ularni rad etish ya'ni, murosasizlikni. Albatta inson qadriyatlariga zid bo'lgan hodisalarni qabul qilish ularga tolerant bo'lish juda mushkul, bunday vaziyatda ular intolerant bo'ladilar. Intolerant bo'lgan insonlarda jamiyatni boricha qabul qilish, biror yangiliklarni qabul qilish qiyin kechadi. Hatto ilm-fan yo'lidagi

yangiliklarni ham qiyinchilik bilan qabul qiladilar va hatto qabul qilmasliklari ham mumkin.

Tolerantlik insondagi qiziqarli va shu bilan bir qatorda murakkab jarayon hisoblanadi. Shaxsda tolerantlikni shakillantirish bolalik davrlaridan boshlanadi. Har bir inson qalbida bu his bilan dunyoga keladi, ammo uni keyinchalik ushlab qolish, rivojlanttirish yoki butkul yo'q qilib yuborish har bir insonning o'z qo'lida degan fikrdamiz. Albatta har bir ishning yaxshi va yomon tomonlari bo'lgani kabi tolerantlikda ham ijobiy va salbiy tomonlari bor, har bir ishga tafakkur qilmasdan tolerantlikni namoyon qilish bu salbiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Masalan bir jinoyatga guvoh bo'lgan vaziyatda inson tolerant bo'la olishi va ushbu jinoyatni oqlashi bu tolerantlikni salbiy tomonlari deyishimiz mumkin. Insonga tafakkur, ong kabi buyuk ne'matlar berilgan, har qanday vaziyatda ulardan foydalanib vijdonan ish tutishlik bu eng to'g'ri yo'l bo'ladı.

Tolerantlik dunyoqarashi bu ijtimoiy fenomenning mazmuni va mohiyati, shakillari to'g'risidagi ilmiy bilimlar majmuidir. Tolerantlik tafakkuri ana shu bilimlarga tayanib fikr yuritish, mushohada va mulohaza qilishdir. Insonlar hayotida tolerantlikka asoslangan amaliyotning samaradorligi va natijadorligi tolerantlik dunyoqarashning kengligi, chuqurligi, boyligiga asoslangan tolerantlik tafakkuri darajasi va saviyasiga bog'liq. Ijtimoiy taraqqiyot dinamikasi uni amalga oshirayotgan jamiyat a'zolarida tolerantlik dunyoqarashi va tafakkuri qay darajada yuqoriligidagi bog'liqdir. Tolerantlik omilining ijtimoiy barqarorlik, jamiyatda tinchlik, ahil-totuvlik, ijtimoiy hamkorlikni ta'minlashdagi beqiyos o'rni va ahamiyati bugungi kunda tan olingan aksiomatik haqiqatdir.

### ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. 5 – jild. –Toshkent: O'zME, 2005. -B. 345.
2. <https://religions.uz/uz/news/detail?id=183>
3. Abidova.Z.A, Jalilov.O.J, Jurayeva.H.A. Взаимосвязь уровня толерантности личности с местом его проживания. Vestnik integrativnoy psixologii// Jurnal dlya psixologov. Son.27. –Buxoro-Yaroslavl:MAPN, 2023. – 39-44b.
4. Петренко В.Ф., Митина О.В., Бердников К.В., Кравцова А.Р., Осипова В.С. Психосемантический анализ этнических стереотипов: лики толерантности и нетерпимости. – М.: Смысл, 2000.

5. Толерантность – мировоззрение современного общества: Сборник научных трудов // Под ред. И.Ф. Исаева. – Белгород: БелГУ, 2002.
6. Бағрикенглик - барқарорлық ва тараққиёт омили. - Т.: Тошкент Ислом университети. 2007. 13-14-6.